

9-vi L-26 2015 JP

XUSH KELIBSAN, YANGI YIL!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:1 (67010)
2015-yil
5-yanvar

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092



PREZIDENT ARCHASI

Yangi yil bolajonlarning sevimli va har yili orziqib kutadigan bayramlaridan biridir. Yurtimizda bu shodiyonani qiziqarli va esda qolarli darajada tashkillashtirish an'anaga aylangan. 2014-yilning 29-30-dekabr kunlari poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida «Prezident archasi» tantanalari bo'lib o'tdi.

**Qalbimizda Quyosh parchasi,
Shodligimiz sig'mas jahonga.
Prezidentning ulkan archasi,
Nur taratar O'zbekistonga!**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi hamkorligida tashkil etilgan ushbu tadbirga Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, maxsus maktab-internatlar o'quvchilari, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va ehtiyojmand oilalar farzandlari taklif etildi. Ko'zni qamashtiruvchi



JAJJILAR DUNYOSIDA

3-bet

bezaklarga burkangan archa saroyga o'zgacha ko'rk bag'ishlab turar, quvnoq teatrlashtirilgan musiqiy tomoshalar bolalarning shodon kulgulariga qorishib ketgandek, go'yo.

Ayniqsa, «Prezident sovg'asi» tadbir ishtirokchilariga olam-olam quvunch bag'ishlab, bayramlarga boy, tinch-osoyishta mamlakatda yashash baxtidan minnatdorlik hissi ularning beg'ubor chehralarida aks etib turardi.



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar

QARISI BOR UYNING FAYZI BOR

Yoshligimni eslasam, ko'z oldimga doimo buvim keladilar. Buvim Sharifa ona savodxon, bilimli, mehnatkash, oqila va bag'rikeng inson edilar. Ularni qishlog'imizdagi katta-kichik birdek hurmat qilar edi. Chunki Sharifa ona qishloqdagi har bir yaxshi ishlarga bosh-qosh bo'lar, atrofda qilgan qimmatli maslahatlarini ayamas, qo'ldan kelgan gancha odamlarga yaxshilik qilardi.

Oilamizdagi to'rt o'g'il, ikki qizning bolaligidanoq savodini chiqargan buvim bo'ladi.

Kechgacha uy yumushlarini bajargan buvim kechki payt biz – bolalar bilan shug'ullanar edilar. Akalarim, opam o'qituvchilari bergan vazifalarni bajarishar, ularni ham buvim nazorat qilib turar edilar. Ular men bilan singlimga oldin harflarning qanday yozilishini ko'rsatib, keyin o'qishni o'rgatadilar. Buvim bu mashaqqatli mehnatdan aslo

charchamas, bizga o'qish, yozishni qunt bilan o'rgatishdan zavq olardilar. Bizlar o'yinqaroqlik qilib, berilgan vazifani vaqtida bajarmasak, ular ozgina koyib qo'yib, o'zlarini o'rgatar, agar aytganlarini o'z vaqtida bajarsak, bizni ikki dona parvarda yoki qantak o'rikning turshagi bilan siylardilar.

Buvimning sa'y-harakatlari bois, singlim ikkovimiz hali maktabga chiqmasdanoq yozish, o'qishni o'rganib oldik. Shu bois ham maktabda o'qish biz uchun oson kechang.

Biz – bolalar qorli kunlar tezroq kelishini orziqib kutar edik. Uy vazifalarini bajarib bo'lgach, tancha atrofida yig'ilib, uzun qish kechalari buvimning ertak, dostonlarini tinglardik. U kishi juda ko'p o'zbek xalq ertaklarini bilar, ularni shunaqangi zavq bilan aytardilarki, ertaklar bir-biriga ulanib, vaqtning qanday o'tganini ham bilmay qolar edik. «Uch og'a-ini botirlar»dagi kenja ukaning jasorati, «Hotamtoy»dagi



Uymizning ko'riki davlati bo'lmish buvijonlarimiz omon bo'lishsin.

ham unib-o'sib, oliy o'quv yurtlarida o'qib, yaxshi mutaxassislar bo'lib yetishdik. Elimiz, xalqimizning xizmatida bo'lib, obro'-e'tibor topishimizga buvimning ertak, dostonlari juda katta yordam bergan desam, mubolag'a qilmagan bo'laman.

Ha, qarisi bor uyning parisi, fayzi bor. Yosh ulug', keksalari bor xonadonda o'ziga yarasha fayz, qut-baraka bo'ladi. Shuning uchun

qahramonning saxiyliqi haqidagi ertaklar hali-hanuz esimizda.

Buvim dostonlarni aytishni ham qoyil qilar edilar. Ularga buni bolalik paytlari buvilari aytib bergan, ular yodlab olgan ekanlar. «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Intizor», «Nurali» dostonlari, Fuzuliy, Navoiy, Rumi, Bedil, Mashrab g'azallarini shunchalik zavq bilan aytardilarki, doston qahramonlariga juda-juda o'xshagimiz kelar edi.

Biz katta oilaning farzandlari buvim aytib bergan ertak, dostonlarni eshitib ulg'aydik. Asar qahramonlarining yaxshi xislatlarini o'rgandik. Olti farzand

bobo, buvijonlarimizning hurmatlarini joyiga qo'yib, ularning o'git, maslahatlariga quloq tutsak, o'qishlarimiz a'lo, ishlarimiz esa unumli bo'ladi. Keksa bobo, buvijonlarimizga yaqindan yordam berib, ko'maklashib, ularning duolarini olsangiz, aslo kam bo'lmaysiz.

Ha, yana bir muhim narsani aytishni unutayozibman, buvijoningizdan ertak, dostonlar eshitishni aslo yoddan chiqarmang.

Yusufjon HAMDAMOV,
O'zMU dotsenti

IQTIDORLILAR – MAKTAB FAXRI

Paxtakor tumani-dagi 1-umumta'lim maktabi Jizzax viloyatida ko'zga ko'ringan ta'lim dargohlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Nargiza TURSUNBOYEVA rahbarlik qilib kelayotgan mazkur maktabda 792 nafar o'quvchiga 55 nafar pedagoglar ta'lim-tarbiya berishadi.

2014–2015-o'quv yilida o'quvchilar maktabda tashkil etilgan 20 ta fan va 5 ta sport to'garaklarida muntazam shug'ullanib, tajribali o'qituvchilar tomonidan mashg'ulotlar olib borishmoqda.

O'z fanining bilimdonlari bo'lgan ustozlardan saboq olayotgan o'quvchilar orasida ilmga chanchoq, zukko, iqtidorlilari

ham talaygina. Ular fan olimpiadalari, turli bellashuvlarda faol ishtirok etishadi, kitobni o'zlariga eng yaqin do'st deb bilishadi. Jumladan, «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi ijrosi yuzasidan o'tkazilgan insholar ko'rik-tanlovida 8-«A» sinf o'quvchisi Muattar Mirzayeva va 9-«B» sinf o'quvchisi Madina Tovbayeva tuman bosqichida 2-, viloyat bosqichida esa 2- va 3-o'rinlarni egalladilar.

«Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida 4-«B» sinf o'quvchisi S. Asqarova, insholar yo'nalishida Muattar Mirzayeva, tasviriy san'at yo'nalishida 7-«B» sinf o'quvchisi Farhod Bektemirov viloyat bosqichida faxrli o'rinlarni egalladilar.

«Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalida 7-«B» sinf o'quvchisi Muxlisa Mo'minova va 7-«A» sinf o'quvchisi Islom Zaripov «Tasviriy san'at» yo'nalishida, 8-«B» sinf o'quvchisi O'g'iloy Quدراتova viloyat bosqichida faxrli o'rinlarni egallab, respublika bosqichida faol ishtirok etdilar.

O'quvchilar orasida sportsevarlari ham talaygina bo'lib,

ularning sport sohasida erishayotgan yutuqlari maqtovga loyiq. Jumladan, 2013–2014-o'quv yilida 8-«B» sinf o'quvchisi Yulduz Suyundiqova, 7-«V» sinf o'quvchisi Madina Astanova Andijon shahrida bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha O'zbekiston birinchiligida viloyat sharafini munosib himoya qilishdi.

8-«B» sinf o'quvchisi Suhrob Orifboyev esa Turkiyaning Antaliya shahrida bo'lib o'tgan jahon birinchiligida faxrli 2-o'rinni egalladi.

Ham ilm-fanda, ham sport sohasida



salmoqli muvaffaqiyatlarga erishayotgan bu o'quvchilar maktabning faxri. Ularning erishayotgan yutuqlari bundanday ziyoda bo'lsin, deya tilak bildiramiz.

BONU

FAN OYLIKI YAKUNI

Yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalarida dekabr – milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani oyligi deb e'lon qilingan edi.

Men tahsil olayotgan maktabda ham bu fan oyligi uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Mazkur fan bizning siyosiy bilimimizni oshirishga yaqindan yordam beradi. Ustozimiz Dilorom opa Mirzaahmedova bu fandan bizga saboq beradilar. Ular boshchiligida devoriy gazetalar, bukletlar, referatlar tayyorladik va maktabimiz foyesiga terib qo'ydik.

– Bu fan yoshlarning g'oyaviy bo'shlig'ini to'ldirishda yordam beradi. Istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yoshlarimizga bugungi kunda yaratilayotgan sharoitlar, ularning kelgusida yetuk inson, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlarida muhim omillardan biri hisoblanadi, – deydi ustozimiz. Oylik so'nggida ushbu fandan yuqori sinflar aro bellashuvlar o'tkazildi.

Maftuna SIROJIDDINOVA, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi profilni mehnat ta'limiga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi



Yaqinda maktabimizda shoir Miraziz A'zam bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuv atoqli shoira Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligiga bag'ishlandi. Miraziz A'zam shoironing she'rlari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilinganligi, uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, o'zi ham bevosita Zulfiyaxonim bilan suhbatda bo'lganligi, bu g'animat onlardan olgan kechinmalarini to'ldirib berdi.

SHOIR BILAN UCHRASHUV

Miraziz A'zam, shuningdek, rus tilidan qilgan tarjimalarini o'qib berdi. U o'quvchilarni bahr-u baytga taklif qilib, ulardan o'zbek, rus, irvit tilida o'rgangan she'rlardan namunalar o'qib berishni so'radi. 7-sinf o'quvchisi Adolat Kalanova o'zining o'zbek tilidan rus tiliga qilgan tarjimalaridan namunalar keltirdi. 4-sinf o'quvchilari Veronika Tulchinskaya, Muslim Komarovlar o'zbek tilida ona Vatan, O'zbekiston haqida yod olgan she'rlarini aytib berishdi.

Uchrashuv yakunida shoir o'quvchilarni Yangi yil bilan samimiy qutladi. Taassurotlarga boy kechgan tadbir o'quvchilar xotirasida muhrlanib qolsa, ne ajab?!

Ilona GOTSKOZIK,
Svetlana BABITSKAYA,
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumanidagi
321-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchilari



TOSHKENTGA SAYOHAT

Yaqinda geografiya o'qituvchimiz Mastura Muhammadiyeva va maktab «Kamolot» ijtimoiy harakati tashkilotchisi Marg'uba Sirojiddinova boshchiligidagi Toshkent shahriga sayohatga bordik. Poytaxtimizning yanada gullab-yashnayotganini ko'rib, juda quvondik.

Mustaqillik maydoni atrofida sayr qildik. Xotira maydonini ziyorat qildik. Ikkinchi jahon urushida bedarak ketgan yurtdoshlarimizning familiyasi orasidan hamqishlog'imiz Bahridin ota Nasriddinov haqida ma'lumot topdik.

Ustozlarimiz bizga Tosh-

kentning tarixi haqida ko'p qiziqarli voqealarni so'zlab berishdi. Sayohatdan zavqlangan o'quvchilardan Nodira Tursaidova, Sardor Baxtiyorov, Dilnoza Rustamova, Zilola Qahramonova, Shukrullo Husanovlar o'z taassurotlari haqida insho yozib, uni

maktabdoshlariga o'qib berdilar. Darhaqiqat, sayohat bizga juda yoqdi.

Iroda TOSHPOLATOVA,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumanidagi
3-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

ZULFIZARDAN QATRA ZAR...

Men ona tili va adabiyot faniga qiziqaman, bo'sh vaqtlarimda she'r yozishni mashq qilaman.

Ona Vatan, tinchlik, farovon turmushimiz ijodimning asosiy mavzusidir. Yangi «Keksalarni e'zozlash yili»dan ilhomlanib, yurtimizda istiqomat qilayotgan buvi-buvajonlarni ardoqlovchi misralar yozishni niyat qilganman. Baxtimizga ular salomat bo'lishsin!

*Bobolarim omon bo'lsin,
Momolarim omon bo'lsin.
Yuzga kirsin,
mingga kirsin,
Mudom yonimda
yursin!*



Zulfizara RAJABOVA,
Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanidagi
30-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

YOSH KITOBXON

Muhammaddiyor Mahamatov Farg'ona shahridagi
9-umumta'lim maktabining 2-sinfida o'qiydi. U
uch-to'rt yoshligidanoq kitobga qiziqqa
boshlagan.

Buni sezgan ota-onasi unga ko'plab rasmiy kitoblar sovg'a qilgan. Yetti yoshga to'lmasdanoq geografiya va biologiya fanlariga alohida mehr qo'ydi. Shu bois, bugun uning geografiya va hayvonot olamiga oid bolalarbop kitoblari juda ko'p. Maktab kutubxonasi esa Muhammaddiyorning eng sevimli maskanlaridan biri. Bunda bolalarga oid birorta kitob uning e'tiboridan chetda qolmaydi.

O'tayotgan har bir kundan unumli foydalanib, puxta bilim olishga intilayotgan kitobsevar do'stingiz o'tgan yili Ahmad Farg'oni nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan kitobxonlar tanlovining viloyat bosqichida «Jajji kitobxon» nominatsiyasida g'olib bo'lgan.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati

JAJJILAR DUNYOSIDA

Poytaxtimizning Olmazor tumanida bir maskan bor. Bolalarning sho'x-shodon kulgulariga to'la bu muassasada atrof olam bilan tanishish, nutq o'stirish, tasviriy san'at hamda jismoniy tarbiya kabi mashg'ulotlar vositasida shirintoylar maktabga tayyorlanishadi.

galgi Yangi yil bayramiga alohida tayyorgarlik ko'rishdi. 4-, 9-, 10-, 11-guruh tarbiyalanuvchilari ishtirokidagi teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari davraga fayz kiritdi. Turfa obrazdagi ertak qahramonlari namoyishi bolalar tomonidan qoyilmaqom ijro etildi.

Ayniqsa, 10- «Yulduzcha» guruhi tarbiyalanuvchilarining archa ko'rinishida namoyon bo'lishi, guruh rahbari Barno Isamuhamedovaning ular bilan birgalikdagi ijrosi tadbirga yanada zavq bag'ishladi. Guruh faollari Rahmatullo Shukrullayev, Ziyoda Hakimova,

Aziza Tohirova hamda Oybek Asatullayevning archa haqidagi she'rlari barchaga birdek yoqdi.

Muassasadagi navbatdagi tadbir yakunlanib

borar, biz esa bolalik dunyosining beg'ubor tomoshalarida mudom qolgimiz keldi.

Beg'ubor chehrangni tabassum aslo tark etmasin, bolajon!

Nurbek NURALI o'g'li



Bunda tarbiyalanuvchilarga barcha imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, sirk va shahrimizdagi Yosh tomoshabinlar teatring bog'chaga tez-tez tashrif buyurishi sabab, bolajonlar har tong sevimli maskanlariga oshiqishadi.

Jajji kulgan chehralar nomli 441-maktabgacha ta'lim muassasasida bayram tadbirlari o'zgacha ruhda tashkillashtiriladi. Tarbiyachilar bu



ILM OLIB YOSHLIK CHO'G'IDA, ULG'AYAMIZ YURT QUCHO'G'IDA

Yangi yil arafasida Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 56-umumta'lim maktabi o'quvchilari mehmoni bo'ldik. Poytaxtni viloyat bilan bog'lagan katta yo'l yoqasida joylashgan maktab hovlisiga kirib borar ekanmiz, ayni qish pallasida ham bahoriy taft berib turgan ko'm-ko'k archalarni ko'rib, dilimiz yayradi.

O'quv binosiga kirish joyidagi maydonchada bolalarga yo'l harakati qoidalarini eslatib turuvchi, piyodalar o'tish joyi, hatto mo'jagina svetoforga ega bo'lgan harakat xavfsizligi burchagi esa ibratga arzigulik ish bo'lgan ekan. Maktab saranjom-sarishta. Yo'laklar-u sinf xonalari o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi hikmatli so'zlar bilan bezatilgan. Maktab rahbari, o'quvchilarning puxta bilim olishlari



uchun bor mahoratini ishga solishga kamarbasta Gulbahram Gasilova bilan shogirdlarining yutuqlari, ta'lim sohasidagi yangiliklar borasida suhbatlashdik.

O'quvchilar bilan ilk muloqot chog'idayoq ularning bu uchrashuvga puxta hozirlik ko'rganlari ma'lum bo'ldi. Yosh do'stlarimizni

gazetamizning qanday chop etilishi, maqolalar tayyorlanishi, she'r va hikoyalar qanday yozilishi, qo'yingki, ijodiy jarayon juda qiziqtirarkan. She'rlar o'qilgan chog'da zaldagi jimjitlik, ijodiy kayfiyat xodimlarimizni ham ilhomlantirib yubordi.

Uchrashuv uchun belgilangan fursat allaqachon o'tib ketganiga qaramay, savol-javoblarning adog'i ko'rinmasdi.

Yoshlarning har bir kunini mazmunli, esda qolari bo'lishi uchun xizmat qilayotgan, mazkur tadbirning ham tashkilotchilari bo'lgan rahbar o'rinbosari Sevara Azimova va ARM rahbari, Ozoda Qurbonovning fidoyiliklariga havasimiz keldi. Bu maktabga yana kelishni dilimizga tugib qo'ydik. Chunki yangi yilda o'quvchilarning yutuqlari yanada ko'payishi, shubhasiz.

YANGI YILGA MUNOSIB SOVG'A

Poytaxtimizning Shayxontohur tumani maktablarida yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan. «Farzandingizga kitob sovg'a qiling» shiori ostida maktablarda tez-tez ijodiy uchrashuvlar o'tkazilib, tadbir doirasida bolalarga mo'ljallangan badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Ota-onalar ham bunday anjumanlarning faol ishtirokchisi. Tadbir yakunida esa ko'pchilik ota-onalar farzandlari uchun, albatta, yangi kitob sovg'a qiladilar.

Yaqinda tumandagi 102-umumta'lim maktabida ana shunday tadbirlardan biri bo'lib o'tdi. Bir yarim mingdan ziyod o'quvchi tahsil olayotgan bilim maskanining 4-, 5-, 6-, 7-sinf o'g'il-qizlari ijodiy xodimlarimiz bilan muloqotda bo'lib, kitoblar olamiga sayohat qildilar. Shoir Axtamqul ijodidan namunalar tinglab, o'z navbatida, o'zlari yozgan she'r va hikoyalardan ham o'qib berdilar. Muloqotimiz qizg'in tarzda o'tdi. O'quvchilarning o'z fikrlarini emin-erkin, ravon tarzda bayon etishlari ijodkorlarni ham nihoyatda mamnun etdi.



ettirib borayotgan bolalarga ko'zimiz tushib, ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Bugun ularning xonadoniga yangi bir kitobning kirib borishi naqadar zavqli, zero, tadbirdan ko'zlangan maqsad ham shu edi, aslida. Yangi yilni munosib sovg'a bilan kutib olish kishiga hamisha o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Biz esa uylariga sodiq do'st, dono maslahatgo'y kirib borgani bilan barcha o'quvchilarni muborakbod etamiz.

Sahifani Yusuf ABDULLAYEV,
Axtamqul KARIMOV tayyorlashdi

Bunday uchrashuvlarning muntazam o'tkazib turilishida maktab rahbari Ra'no Mirzajonova, bolalarni kitobga oshno etishdek ezgu ishni hayotining mazmuniga aylantirgan maktab kutubxonachisi Sanobar Husanovanning xizmatlarini alohida ta'kidlagimiz keldi.

Tadbirdan chiqar ekanmiz, bugungi uchrashuvdan olgan taassurotlarini yo'lda ham davom



Lesson 17

WINTER SCRAMBLE
(Qish boshqotirmasi)

- Swon – snow
- Lgoves –
- Iftg –
- Salute –
- Cldo –
- Mountain –
- Snowflake –
- Sltee –

Put into place the letters and make a new word.



OUR NEW YEAR TREE
(Bizning archa)

Translate and decorate the new year tree. Don't forget to learn by heart the new words.

Garland, star, bell, paper chain, snow-maiden, ribbon, Bengal light, tinsel.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi
54-umumta'lim maktabi o'quvchisi



RIDDLES
(Topishmoqlar)

It doesn't sink in water,
And doesn't burn on fire.
(Suvda cho'kmaydi, o'tda yonmaydi)



Its body is clumsy,
And his coat is very hot.
(Salobatli gavdasi uni, juda issiq kiygan po'stini)



Zilola JAMOLOVA tarjumasini,
Jizzax DPI qoshidagi 2-akademik litseyi o'quvchisi

AMAZING WINTER
(Ajoyib qish)

Winter, winter
Beautiful nature,
Weather is cold
May be in picture.

Oh, what fine
Playing snow,
Snowy days
It's amazing wow.



Orastabonu TILOVBERDIYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
229-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

CATCH UP TO GOOD FORTUNE
(Intilganga tole yor)

«I'm the pupil of form 4-«A» of school number 12 in Jizzakh region, Pakhtakor district. Our teacher always say «Catch up to good fortune», because of this all my marks are excellent and nowadays I'm a leader of class. In future, I want to be a military and protect our country. During the winter holiday, I want to go to Samarkand to my grandmother and help her with home works. The new «Respect of old aged people» year I invite my friends to honor the beauty of our Grandfathers and Grandmothers – said Sardorbek QODIROV.



FIND THE NOUNS
(Otlarni toping)

Read the sentences and write down which word you think is the noun.

- Winter is very cold. *Winter*
- New year is a wonderful holiday. ?
- Do you send the letter to Santa Claus? ?
- Close the door. ?
- These children were very happy. ?
- Look at the sky, black clouds are coming. ?
- This book is very interesting. ?
- My friend is a very good painter. ?
- Sardor's father bought him a new year tree. ?
- This bird can't fly. ?

NEW YEAR WORD SEARCH


| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| d | e | c | o | r | a | t | i | o | n | s |
| b | e | n | g | a | l | i | g | h | t | o |
| g | h | a | p | p | y | d | f | s | j | r |
| h | c | e | l | e | b | r | a | t | e | n |
| w | l | e | a | h | g | h | m | n | a | a |
| i | b | e | l | l | e | u | i | o | p | m |
| s | f | r | u | i | t | s | q | w | e | e |
| h | r | t | y | u | o | h | b | n | v | n |
| e | z | x | c | v | b | n | y | m | u | t |
| s | u | c | c | e | s | s | q | w | r | s |

Try to find these words: decorations, success, ornaments, wishes, fruits, bell, celebrate, happy, Bengal light.

Umida UMAROVA

MY FAVORITE SEASON
(Mening sevimli faslim)

Complete this flower leaves using these words and word combinations.



White, cool, lovely,
snowball, slip from
the hill, sledge, warm
clothes

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

ORZULARIM OSMONDIR



Uzoqlardan tolmayin,
Vaqtini hatlab tinmayin.
O'tgan kunni sarhisob,
Qilyotir Yangi yil.

O'tgan yildan ko'nglim to'q,
Mendan baxtli inson yo'q.
Dilginamga yangi cho'g',
Solayotir Yangi yil.

Orzularim osmondir,
Go'yo kaftdagi qordir.
Umrimga bilim yordir,
Kuylayotir Yangi yil.

Yangi niyat, orzular,
Meni baxt tomon chorlar.
Ko'kdan yog'adi qorlar,
So'yalayotir Yangi yil.

*Farangiz SHERBO'TAYEVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos
tumanidagi 7-umumta'lim
maktabining
6-sinf o'quvchisi*

QORPARCHA

Salom senga, qorparcha,
Seni kutadi barcha.
Osmonimiz to'ldirib,
Yog'averigin nur bo'lib.

Bezatgin sen yo'llarni,
Quvontirgin dillarni,
Yashnatgin archamizni,
Sevintir barchamizni.

*Dilbaroy PRIMOVA,
poytaxtimizning Uchtepa
tumanidagi 296-umum-
ta'lim maktabining 7-«A»
sinf o'quvchisi*



QISHNING ERKATQOY QIZI

Xayollarim misoli,
Yog'ayotir oppoq qor.
Chor- atrofda quvnashib,
To'zg'iyotir oppoq qor.

Shaddod shamol yugurar,
Oq choyshabni silkitib.
Ukam qorto'p otadi,
Kuchukchamni qo'rqitib.

Angrayadi mushukcham,
Qorda qoladi izi.
Yog'ayotgan oppoq qor,
Qishning erkatoq qizi.

*Shahrizoda OMONOVA,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi 6-umumta'lim
maktabining 7-«B» sinf
o'quvchisi*



YANGILIKLAR OLIB KEL

Yangi yil, ho Yangi yil, yangiliklar olib kel,
Qorboboning qopini sovg'aga to'ldirib ber.
Birga shodon o'ynaylik, qorqizni ham olib kel,
Bolalarni shod etib, tiliga keltirgin she'r.

Bolalar, hoy bolalar, qani raqsga tushinglar,
Davramizni to'ldirib, sovg'alarni olinglar.
Yangi yil, ho yangi yil, yangi sovg'a olib kel,
Qorboboni yetaklab uyimizga olib kel.

Bolalar, shodlaninglar, yilni kutib olinglar,
Keksalarni yo'qlabon duosini olinglar.
Yangi yil, ho yangi yil, yangiliklar olib kel,
Qorqizni ham yetaklab uyimizga kirib kel.

*Abdulazizjon ISOMOV,
Buxoro tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
7-«B» sinf o'quvchisi*

archa yanada yashnadi.
Uning tepasiga katta billur
sharcha ildim. Sharcha
chiroq nurida yalt-yult yonib
tovlanardi. Quvonganimdan
Ko'k archada

ko'k sharcha,

Ko'k sharchasi ko'p archa...

deya qo'shiq kuyladim. Ertasi kuni
maktabdan kech qaytdim. Xonamga
kirdim-u, yerdagi shisha bo'laklariga
ko'zim tushdi. Ukam Umidjon
sharchani olaman, deb qattiq tortgan
ekan, bandi uzilib, qo'lidan tushib
ketibdi. Umidning qo'lchalariga qarab:
- Shisha siniqlari hech yeringni
kesmadimi? - deb so'radim. U hali
kichkina-da, so'zlarimga parvo qilmadi.
Oyoq uchida turib, qo'lini boshqa bir
o'yinchoqqa uzatdi. Bo'lgan voqeadan
xabar topgan onam archadagi shisha
o'yinchoqlarni yig'ib oldilar. Xafa
bo'lsam-da, buni ularga sezdirmadim.
Uch-to'rt kun o'tgach, archani
mehmonxonaga olib chiqdik. Bayram

Dilshod RAJAB QAT'IYAT

Men bir so'zli soatman,
Chiq dedimmi, tamom, bil!
O'tsa hamki, oy, yillar,
Gapirmayman ikki xil.
So'zim bir, chiq-chiq-chiq-chiq.

Qiyansan, osib qo'yib,
Qulog'imni burarsan.
O'z so'zimda turaman,
So'zim shu, chiq-chiq-chiq.



JIRAF

Yaxshiyam bo'yni uzun,
Unga asqotar juda.
Ayniqsa, dars mahali -
Misol yechish vaqtida.

Chunki u eng ortdagi
Bir partada o'tirar.
Bo'ynini cho'zib asta
Chumolidan ko'chirar.

TAAJUB

Chipor jo'ja Xo'rozning
Ortidan hech qolmaydi.
Qayga borsa boradi,
Erinmaydi, tolmaydi.

Birga yurar dalada,
Birga kirar kataka.
Yo olib yuradimi,
Xo'roz uni shatakka?!



BILLUR SHARCHA

(Hikoya)

O'tgan yakshanba kuni oyim bilan
do'konga borib, bo'yim barobar archa
olib keldik. Igna barglari yam-yashil,
yelimdan bo'lsa ham, haqiqiyga
o'xshardi.

- Archani mehmonxonaga
o'rnatamiz, - dedi Nargiza opam.

- Keling, uni hovliga yoki
o'zimizning xonamizga qo'yaylik,
atrofida mazza qilib aylanib
o'ynamoqchiman, - dedim opamga.
So'zlarimni eshitib turgan oyim uni
bolalar xonasiga o'rnatishga ruxsat
berdi. Quvonchim ichimga sig'may
qichqirib yubordim. Taxta javondagi
qutidan rangli shisha o'yinchoqlarni
oldim. Archani bezatishga kirishib
ketdik. O'yinchoqlar bilan bezangan





ZOMINLIK SPORTCHILAR

Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabida sportning basketbol, voleybol, shaxmat, shashka, stol tennisi va qo'l to'pi turlari bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ushbu mashg'ulotlarni jismoniy tarbiya o'qituvchilari G'ayrat Shukurov hamda Sherzod Abilov muntazam olib borishadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Xayrulla Boyzoqov shashka, Sherali Quvondiqov shaxmat, Akmal Qarshiboyev mini futbol to'garagi mashg'ulotlariga o'z ko'maklarini berib kelishayotgan bo'lsa, Dilshod Qayumov esa stol tennisini boshqarishda faollik ko'rsatmoqda. Maskan o'quvchilari o'tgan davr mobaynida voleybol, qo'l to'pi, shaxmat va shashka bo'yicha tuman va viloyat musobaqalarida kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'rtasida faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Birgina misol, muassasa o'quvchilaridan tashkil topgan voleybol terma jamoasi o'tgan o'quv yilida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Sirojiddin Botirov, Orif G'aniyev, O'rol Normatov, G'iyos Norbo'tayev, Furqat Xudoyqulov, Xayrulla O'rolov kabi sportchilar murabbiylari G'ayrat Shukurov hamda Sherzod Abilov qo'l ostida barcha bellashuvlarda faxrli o'rinni qo'lga kiritib, maktab sharafigini himoya qilishdi.

Ayni kunlarda Muhammad Meliboyev, Sadriddin Joynoqov, Islom Sattorov, Suhrob Ubaydullayev, Islom Abdulkarimov, Ilhom Nazarov, Sherzod Bosimov singari maktab faollari darsdan bo'sh vaqtlarida voleybol bo'yicha malakalarini oshirib, navbatdagi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Muhammadsodiq ALIMOV

ORZULAR QANOTIDA

Xurshid Amirov Buxoro shahridagi 38-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi. Sportning futbol turini sevadigan bu yigitcha «Sog'lom bola yili»da o'smirlar o'rtasida futbol bo'yicha o'tkazilgan respublika turnirida 3-o'rinni egallagan bo'lsa, Konstitutsiya qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan sport musobaqasida 2-o'rin sohibi bo'ldi.

Shuningdek, yosh futbolchi Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda faxrli o'rinni egallab, o'tgan yilning avgust oyida Toshkent viloyatida o'tkazilgan Xotira turnirida ham munosib o'rin sohibi bo'ldi. Xurshid Navoiy viloyatida tashkillashtirilgan navbatdagi shaharlararo musobaqada 2-o'ringa loyiq topildi.

Xurshid bugungi kunda shahardagi bolalar va o'smirlar maktabining futbol jamoasi a'zosi. U kelajakda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining futbol yo'nalishida tahsil olib, nufuzli komandalarda to'p surishni niyat qiladi.

Orzular qanotida parvoz et, sportchi!
Shukrulla G'ULOMOV



A. HAMIDULLAYEV olgan surat

YASHNOBODDA...

UCH SINFDOSH

Umumta'lim maktablari o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqasining ikkinchi tur tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

26-dekabr kuni Yashnobod tumani 9-ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabida bo'lib o'tgan mazkur musobaqaning boks yo'nalishida tuman 215-umumta'lim maktabi 7-«A» sinf o'quvchilari Abdug'ani Qodirov 40 kg. vazn toifasida 1-o'rin, Muhammadsaid Kattaxo'jayev 42 kg. vazn toifasida 2-o'rinni egallashgan bo'lishsa, 38 kg. vazn toifasida ham 3-o'rin shu maktab o'quvchisi Ibrohim Abdullayevga nasib etdi.

O'ttizga yaqin ta'lim muassasalari o'rtasida g'oliblikni qo'lga kiritishda maktab jismoniy tarbiya murabbiyi E'tibor Xudoyqulovning mehnatlari alohida e'tirofga loyiq.



GIMNASTRADA BO'LIB O'TDI

2014-yil yakuniga bag'ishlab poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi barcha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning o'quvchi-qizlari o'rtasida gimnastada musobaqasi o'tkazildi. Hakamlar hay'ati tomonidan munosib baholab borilgan ushbu bellashuvda 1-o'rin Toshkent ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar kollejining 10-12-guruhiga, 2-o'rin «Turizm va mehmonxona» kolleji qizlariga nasib etdi.

ANDIJONLIK POLVON

Dilshodbek Nurmatov Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabi 8-«D» sinfida tahsil oladi. Maktabning faxrli o'quvchilaridan biri bo'lgan bu o'quvchi maskan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining sport yo'nalishi bo'yicha lider hisoblanadi.

Dilshodbek 2010-yildan beri sportning yunon-rum kurashi turiga qatnashib keladi. Kurashchi ikki yildan buyon yurtimizda o'tkazilayotgan barcha musobaqalarning respublika bosqichida 1-o'rinni egallab kelmoqda. Uning erishgan har bir g'alabasida Andijon Yoshlar sport saroyida yunon-rum kurashi murabbiyi Bahodirjon Dadaxo'jayevning mehnati beqiyos. Sportchimiz kelajakda O'zbekiston yoshlari sog'lom, kuchli, aqli va har tomonlama yetuk ekanliklarini butun dunyoga namoyish qilishni istaydi. Yangi yilda yosh iqtidor egasining o'ylagan barcha ezgu niyatlari amalga oshishini tilab qolamiz. Zafarlar yor bo'lsin, Dilshodbek!



YOSH SUXANDON

Muhammadrahim Burhonov poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 39-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi.



– Muhammadrahim eng namunali, a'lochi o'quvchilarimizdan biri, – deydi maktabning ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Hakima opa Zoirova. – Ko'p kitob o'qigani bois, nutqi ravon, so'z boyligi ko'p. Maktabda o'tkaziladigan tadbirlarda boshlovchilikni ham unga topshiramiz.

– Maktabimizda yigirmadan ortiq to'garaklar faoliyat olib boradi. Men ingliz tili, matematika mashg'ulotlariga muntazam qatnayman, – deydi Muhammadrahim Burhonov biz bilan suhbatda. – Shuningdek, bo'sh vaqtimda sportning stol tennisi bilan ham shug'ullanaman.

Ha, tengdoshingizning orzulari bisyor. Kelajakda harbiy bo'lishni istagan Muhammadrahimga barcha o'ylagan niyatlari ijobat bo'lishini tilab qolamiz.

Dilorom HOTAMOVA

TOPISHMOQLAR

Boshda telpak – chelagi,
Ko'zi – ko'mir bo'lagi.
Burni – sabzi qip-qizil,
Qor haykali behazil –
Muzlab bahorga yetdi.
Jildirab oqib ketdi.



O'rmon bo'ylab keladi,
Bizga mehmon bo'ladi.
Yelkasida qopi bor,
Qiziq aytar gapi bor,
Sovg'a-salom ulashar –
Qo'lni-qo'lga berishar.

TEZ AYTIHLAR

Nor bobomisiz – qorbobomisiz?
Qora qizimiz – qorqizimiz.

Ko'k turp tuproqda ko'p turibdi,
Ko'karib tuproqda po'k turibdi.



Boyagi boyaqish Boyqush –
Qishda ishi sertashvish.

Chaylada chiyabo'n chiyilladi,
Chillaga chiniqib chidadi.

Anvar MIRZAZODA,
Zangiota tumani

QO'Y MUCHALIDA...

Odatda, qo'y beozor jonivor sanaladi.
Ammo uning shoxdorlari ham borligini unutmang.

Mazkur muchal ostida tug'ilganlar to'g'ri fikrlay olsalar, ko'p narsalarga erishishlari mumkin. Ammo sabrsizliklari tufayli, ko'pincha, o'zlarini noqulay ahvolga solib qo'yadilar. Muchal sohiblari tug'ma sardor bo'lishadi. Ular doim olg'a intiladilar, vaziyatdan chiqib ketish uchun yangi imkoniyatlar, yo'nalishlar izlaydilar. Do'stlariga sadoqatli va vafodor muchal sohiblariga sirlaringizni bemalol aytishingiz mumkin.



Ammo ularning jig'iga tegsangiz, undan jahldor kimsani topa olmaysiz.

OZODA tayyorladi

«YANGI YIL» BILIMDONLIK MASHQLARI



CHAYNVORD. Raqamlar bo'yicha: 1. Qorli fasl. 2. Quyosh chiqar tomon. 3. Muchal hisobi bo'yicha boshlanayotgan yil. 4. Vaqt o'lchovi birligi. 5. Sochga taqiladigan ensiz, uzun tasma, bezak. 6. Yuz yillik davr. 7. Yilning barcha oy-kunlari tartibi bilan ko'rsatilgan jadval. 8. Bahor oyi. 9. Orzu, istak. 10. Bong uruvchi minora soat. 11. Kirib kelayotgan yilda tavallud kuniga 110 yil to'ladigan atqli o'zbek adibi, akademik. 12. Sutkaning quyoshli payti. 13. Yilning iste'dod sohiblari sazovor bo'ladigan mukofot. 14. Qish fasliga xos ob-havo. 15. Yangi yil boshlanganida darak beruvchi soat jarangli. 16. «Dunyo soati» deb qabul qilingan vaqt meridianida joylashgan London shahri yaqinidagi okrug. 17. Mo'g'illiston qorbobosi.

«QORBOLAR» KRIPTOGRAMMASI. Kalit so'zlar:

1. Dunyoda aholisi eng ko'p mamlakat – 8, 6, 1, 5, 7.
2. Kunning boshlanish payti – 1, 5, 9, 11.
3. Yer sathining balandlik maskani – 1, 5, 14.
4. Xokkey o'yini to'pi – 13, 2, 7, 3, 2.
5. Yutuq, muvaffaqiyat – 12, 2, 4, 2, 10.

Kalit so'zlari javoblari asosida chizma atrofidagi raqamlarda yashiringan kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan Armaniston, Ozarbayjon, Tojikiston va Qozog'iston Respublikalarida qorbobo qanday nomlar bilan atalishini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

5-yanvar 2015



Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Naybatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftanavz dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 46 000
Buyurtma – S 1770

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.